

2019 yilning yanvar - iyun oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9392,3 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **96,2 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1636,2 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **105,4 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **17,4 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **19,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9392,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 96,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 89,5 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida – 100,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 111,1 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 88,4 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4262,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,4 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining - 7,4 % ga, gaz kondensati – 0,9 %, tabiiy gaz – 2,8 % ga, chaqiq tosh – 36,2 % ga, qum – 22,4 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
---------------------------------------------	----------------------------------------------------------	---------------------------------------------	----------------------

Neft, ming tonna

284,9



263,9

92,6

**Tabiiy gaz, mln. kub metr**

16900,7



16435,5

97,2

**Gaz kondensati, ming tonna**

704,5



697,9

99,1

**Shag`al, ming tonna**

84,5



90,7

107,3



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3827,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,8 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 2,1 % ga, ip-kalava – 27,3 % ga, plastmassa quvurlar – 17,4 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Plastmassa quvurlar, tonna			
1831,0		2149,0	117,4 ↑
Polietilen, ming tonna			
63,4		64,8	102,1 ↑
Alkogol ichimliklar, ming. litr			
1412		1312	92,9 ↓
Ip-kalava, tonna			
9104,0		11587,0	127,3 ↑

2018 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - iyunda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
----------------------------------------------------	------------------------------------------------	----------------------------------------------------	-----------------------------

Paxta tolasi, tonna

72851



30080

41,3



O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

16763,3



9342,1

55,7



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

2019 yil yanvar - iyun oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1221,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 100,6 % ga oshganligi, chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizasiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 78,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


2019 yilning yanvar - iyun oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1636,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 17,4 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - iyun oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,9 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,3 % tashkil etdi.


**Yanvar - iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da**



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,5 %), G'uzor (18,9 %), Qarshi shahri (12,2 %), Nishon (10,9 %) tumanlari, Qarshi (4,2 %) va Koson (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - iyun oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,1 %), Chiroqchi (1,2 %), Kasbi (1,3 %), Qamashi (1,4 %), Shahrisabz (1,5 %) va Yakkabog' (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmida Muborak tumani 3336,1 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 1771,8 mlrd. so`mni, Nishon tumani 1025,2 mlrd. so`mni va Qarshi shahri 1145,0 mlrd. so`mni sezilarli darajada tashkil etdi.

***2019 yilning yanvar - iyun oylarida shahar va tumanlarning
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi***




2019 yilning yanvar - iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - iyun oylariga nisbatan, % da



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Yakkabog' tumanida (2018 yil yanvar – iyun oylariga nisbatan 110,1 %), Kitob (110,8 %), Qarshi (103,6 %) Nishon (104,1 %) va Dehqonobod (106,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

2019 yil yanvar - iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari, 2018 yil yanvar - iyun oylariga nisbatan, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Chiroqchi tumanida (2018 yil yanvar - iyun oylariga nisbatan 107,4 % ga), Nishon tumanida (107,3 % ga), Kitob tumanida (107,2 % ga), Muborak tumanida (107,2 % ga) va Kasbi tumanida (107,1 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,9 %), Koson (9,6 %), Shahrisabz (7,9 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (7,3 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (39160,7 ming so'm), G'uzor tumanida (8853,4 ming so'm), Nishon tumanida (6861,6 ming so'm) va Qarshi shahrida (4211,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2910,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar – iyun oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chigарishda kichik biznesning hisсasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,5 % tashkil etmodda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (88,9 %), Qamashi (85,0 %), Shahrисabz tumanida (80,1 %), Yakkabog` tumanida (76,4 %), Qarshi (59,8 %) va Shahrисabz (49,9 %) shaharlarda kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,3 %), G'uzor tumanida (2,2 %), Nishon tumanida (4,5 %) va Dehqonobod tumanida (10,4 %) kuzatildi.


*2019 yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da*



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 671 tasi Qarshi shahrida, 402 tasi Kitob tumanida, 273 tasi Shahrisabz shahrida, 289 tasi Yakkabog` tumanida, 246 tasi Qarshi tumanida, 235 tasi Chiroqchi tumanida, 177 tasi Qamashi tumanida, 160 tasi Shahrisabz tumanida, 159 tasi Koson tumanida, 138 tasi G`uzor tumanida, 106 tasi Kasbi tumanida, 62 tasi Muborak tumanida, 112 tasi Nishon tumanida, 61 tasi Dehqonobod tumanida va 70 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar - iyun oylarida viloyatda 746 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 100 tadan ortiq Qarshi shahriga, 70 tadan ortiq Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga, 60 tadan ortiq Kitob va Qarshi tumanlariga, 50 tadan ortiq Shahrisabz va Nishon, 40 tadan ortiq Shahrisabz shahriga, 30 tadan ortiq Kasbi, Qamashi va G`uzor tumanlariga, 20 tadan ortiq Koson va Mirishkor tumanlariga, 10 tadan ortiq Dehqonobod va Muborak tumanlariga to'g'ri keladi.